DOI

Mo‘minova S.A.
Farg‘ona viloyati Farg‘ona imkoniyatlari cheklangan shaxslar uchun ixtisoslashtirilgan kasb-hunar maktabi Yoshlar bilan ishlash bo‘yicha direktor o‘rinbosari

PROFESSIONAL TA’LIM TIZIMI XODIMLARINING MA’NAVIY-AXLOQIY FAZILATLARNI SHAKLLANTIRISH

Annotatsiya
Maqolada professional ta’lim muassasalari rahbar va pedagoglarining ma’naviy-axloqiy fazilatlari tahlil qilib berilgan bo‘lib, rahbar va pedagog shaxsi ilmiy, nazariy va pedagogik tamoyillar asosida asoslab, ko‘rsatib berildi.
Kalit so‘zlar: Professional ta’lim muassasalari, ta’lim-tarbiya, ma’naviy-axloqiy fazilatlar, intelektual salohiyat, ma’naviy tarbiya.

FORMATION OF SPIRITUAL AND MORAL QUALITIES OF EMPLOYEES OF THE PROFESSIONAL EDUCATION SYSTEM

Annotation
In the article, the spiritual and moral qualities of leaders and pedagogues of professional educational institutions were analyzed, and the personality of the leader and pedagogue was justified and shown on the basis of scientific, theoretical and pedagogical principles.
Key words: *Professional educational institutions, education, spiritual and moral qualities, intellectual potential, spiritual education.*

Bugungi dunyoning xarakterli xususiyatlaridan biri shuki – kurash asosan tafakkur maydonlarida, ya’ni inson ongi va qalbini egallash ustida kechmoqda. Shu bois, mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlarning muvaffaqiyatli amalga oshirishning muhim omili soha xodimlarining ma’naviy-ruhiy tayyorgarlik darajasi bilan bevosita bog‘liqdir.

Kelajak avlodni yetuk avlod etib tarbiyalashni o‘z maqsad qilgan oldiga maqsad qilib qo‘ygan har qaysi davlat, avvalo professional ta’lim tizimini, jumladan, professional ta’lim muassasalarini zamon talablari darajida jihozlash va ta’lim-tarbiyani tubdan takomillashtirish zarur. Bunday vazifani hisobga olgan holda professional ta’lim tizimida dunyoning rivojlangan mamlakatlarining tajribalaridan unumli foydalangan holda ta’lim-tarbiya va professional ta’lim muassasalarida sog‘lom ma’naviy muhitni yanada oshirishirishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

https://wordlyknowledge.uz

Bundan asosiy maqsad farzandlarimizni har tomonlama barkamol, aqlan va jismonan yetuk avlod etib taribiyalashdan iboratdir. Ushbularni amalga oshirishda avvalo, professional ta'lim tizimida faoliyat olib borayotgan soha xodimlarining mustahkam irodasi va fidoyiligi, ona yurtga mehr-muhabbat va sadoqatiga so'zsiz bog'liqdir. Shu ma'noda, bugungi professional ta'lim tizimida sog'lom ma'naviy muhitni yaratishda ta'lim-tarbiya ishlariga alohida e'tibor berish, ta'lim–tarbiya jarayonini ilg'or texnik va texnologik vositalar, yangicha usul-uslublar asosida tashkil etish, eng asosiysi, professional ta'lim sohasida olib borilayotgan ta'lim hizmatlarini zamon talablari darajasida tashkil etgan holda o'quvchi bolalarni ma'naviy jihatdan barkamol avlodni tarbiyalash ishlarni izchil davom ettirish shart.

Bugungi kunda yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlarga ega bo'lgan yoshlarni tarbiyalash, professional ta'lim sohasida borilayotgan islohotlarning asosiy harakatlantiruvchi kuchi hisoblanadi. Sohada faoliyat olib borayotgan rahbar, pedagog va boshqa soha xodimlarining ma'naviy-axloqiy fazilatlariga – madaniyatlilik, insonparvarlik, fidoyilik, xushmuomalalik, halollik, mehnatsevarlik, vatanparvarlik, mas'uliyatlilik, notiqlik, savodxonlik, qat'iyatlilik, intizomlilik, olijanoblikni kiritish mumkin.

Professional ta'lim tizimi mehnat faoliyatini olib borayotgan soha xodimlarida yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlarni shakllantirish uchun, avvalo, professional ta'lim muassasalarida sog'lom ma'naviy-axloqiy muhitni qaror toptirish va mustahkamlash zarur. Bu, o'z navbatida, rahbarlar mahoratiga alohida e'tibor qaratishni talab etadi. Chunki rahbardir mahorati – uning boshqaruv san'ati sirlarini bilishi, xodimlarni tanlashdan tortib, ular bilan bog'liq ziddiyatli vaziyatlarda oqilona yechim topa olishi, o'zi mas'ul jabhada yuksak samaradorlikka erishish uchun jamoaning bunyodkorlik kuchlarini safarbar eta olishi, tashkilotchilik qobiliyatining namoyon bo'lishini anglatadi.

Rahbar mahoratining muhim jihati uning muomala madaniyatida aks etadi. Samimiyat, adolat, muomala, optimizm, asosiy muammo bilan ikkinchi darajali vazifalarni o'z vaqtida farqlay bilish, tashabbuskorlik rahbar mahoratini tashkil etuvchi omillar bo'lsa, uzoqni ko'ra bilishi, pirovard maqsad va vazifalarni teran anglashi, murakkab vaziyatlarda o'zini yo'qotmasdan noan'anaviy, kutilmagan yechimlar o'ylab topishi, jamoadagi har bir pedagog va boshqa xodimlar ko'ngliga yo'l topa bilishi, uning namoyon bo'lishi hisoblanadi. Ya'ni jamoada haqiqiy rahbar ruhiy ko'tarinki kayfiyat bilan ish olib bormog'i va yashamog'i lozim. Rahbar hamisha jamoa a'zolarining quvonch va tashvishlari bilan yashashi kerak, chunki hayotining ko'pgina unutilmas lahzalari jamoa muhitida shakllanadi, tarbiyalanadi.

Shuningdek, rahbar notiqlik mahoratiga ham ega bo'lishi, tushunarli, ifodali va ta'sirchan, ishonarli va da'vatkor ruhda gapirishga o'rganishi kerak. Rahbarning tinglash mahorati bugungi kunda dolzarb vazifaga aylangan. Bu haqda nemis faylasufi A.Shopengauer: «Odamlarning o'zingiz to'g'ringizda yaxshi fikrga ega bo'lishlarini xohlasangiz, ularni tinglang», degan edi. Chunki

https://wordlyknowledge.uz

tinglash qobiliyati gapiruvchini ilhomlantiradi, ruhlantiradi. Shu tariqa yangi g‘oyalarning shakllanishiga sharoit tug‘iladi.

Rahbarlar yuksak insoniy fazilatlarga ega bo‘lishi uchun quyidagi fazilatlarga ega bo‘lishlari shart:

- ko‘ngli ochiq, aql-zakovat sohibi, ma’naviy shakllangan bo‘lishi kerak;
- u o‘zini tarbiya qilgan, halol, zimmasidagi mas’uliyatni his etib yashamog‘i lozim;
- aqlli, tajribali, o‘z ishining bilimdoni bo‘lmog‘i shart;
- uning barcha ishlari va xatti-harakatlari shaxsiy tarkibga ijobiy ta’sir ko‘rsatmog‘i kerak;
- u fidoyi, tashabbuskor, qat’iyatli va talabchan bo‘lishi shart;
- o‘z shaxsiy hayoti va xizmat faoliyati bilan qo‘l ostidagilarga namuna bo‘lmog‘i lozim;
- nafs balosiga qarshi turmog‘i, o‘zidan kichik rahbarlarni ham bu balodan asramog‘i kerak;
- adolatsizlikka aslo yo‘l qo‘ymasligi lozim;
- uning barcha ishlari ochiq va oshkora bo‘lishi lozim;
- rahbar o‘z g‘oyasi, fikri, harakat dasturiga ega bo‘lish bilan birga, barcha buysunuvchilarni yurt taraqqiyoti, xalqning tinchligi va farovonligi yo‘lida yagona g‘oya atrofida jipslashtirishi shart.

O‘z navbatida, rahbarlik faoliyatining samaradorligi uning tafakkuri, aql-idrokiga ham bevosita bog‘liq. Tafakkur rahbarga keng va chuqur fikrlay olish, yaxshini yomondan, foydani zarardan, muhimni nomuhimdan bexato ajrata olish imkonini beradi. Shuning uchun rahbarlik faoliyatini tafakkur va harakat birligi, deyish mumkin.

Bundan tashqari, professional ta’lim tizimida faoliyat olib boruvchi xodimlarning ma’naviy-axloqiy qiyofasi masalasiga ham alohida e’tibor qaratish maqsadga muvofiq. Chunki usiz inson insonlik martabasiga ko‘tarila olmaydi. Shunday ekan, soha xodimlari ma’naviy-axloqiy qiyofasini belgilaydigan asosiy omillarga quyidagilarni kiritish mumkin:

– intellektual salohiyat;
– mustahkam iroda;
– axloqiy-ruhiy poklik;
– yuksak e’tiqod.

Intellektual salohiyat – soha xodimlarida bilim, hayotiy tajriba, idrok hamda zehn asosida avvalo o‘z aqliy salohiyatini, inson turmush tarzini turli yo‘nalish va shakllarda yanada boyitish, uning yangi qirralarini ochish, mukammallashtirish imkoniyatlarining mavjudligi. O‘z navbatida, intellekt – professional ta’lim muassasalari pedagog xodimlarining aql, idrok, zakovat, ma’naviy jihatdan yetuklik darajasini bildiradi. Ma’lumotlarga qaraganda, odam miyasidagi intellektual kuch yoki salohiyat, atom yadrosidagi beqiyos kuchga teng bo‘lar ekan. Gap uni qanday rivojlantirish va qay darajada ishlata bilishda.

https://wordlyknowledge.uz

Iroda – soha xodimlarining ichki va tashqi intilishlari, imkoniyat va salohiyatini maqsad yo‘lida safarbar etish, qat’iyat bilan harakat qilish, sinov va mashaqqatlarni yengib o‘tishga, har qanday sharoitda ham ruhiy muvozanatni saqlashga asos bo‘ladigan ma’naviy fazilat. Iroda orqali pedagog xodimlar o‘z xohish-istaklari, xatti-harakatlarini qat’iy nazorat qilib turadi. Iroda – bu aslida mustahkam ishonch demakdir. Irodasi baquvvat odam o‘ziga ishonadi va har qanday murakkab vazifani ham o‘z zimmasiga olishdan qo‘rqmaydi. Shuning uchun ham yuksak irodali insonga suyanish mumkin».

Poklik – ma’naviy-estetik kategoriya sifatida eng muhim ma’naviy-axloqiy talablardan biri bo‘lib, samimiylik, sadoqat, ishonch va tabiiylikni o‘z ichiga olgan. Poklik mazmunida oqillik va e’tiqodlilik, sharm-hayo va or-nomus, ziyraklik va farosatlilik, halollik, mehribonlik kabi ijobiy xislatlar mujassamlashgan. Ma’naviy poklik axloq ziyosidir. Unda ruh shaffofligi, sezgi tuyg‘ulari yuksak.

Chunonchi, inson hayotida axloqiy poklik birinchi darajali vazifalardan sanaladi. Chunki axloqiy poklik ta’ma va molparastlikka mutlaqo zid. Donishmand xalqimiz, ishlarning poki – chiroyli va halol bajarilganida, e’tiqodlarning poki – qat’iylikda, taomlarning poki – halollikda, deb bejiz aytmagan. Demak, professional ta’lim muassasasi rahbar va pedagog xodimlari ham o‘z fe’llarini yaxshilashlari, xulqlarini poklashlari, qalblarini musaffo qilishlari ularning o‘zlariga, intilishlariga bog‘liq ekanligini ongli ravishda anglab yetishlari shart.

E’tiqod – muayyan maqsad, qadriyatga ishonch, shu asosda shakllangan tafakkur tarzini ifoda etuvchi tushuncha. Bilimlarning chinligi e’tiqodning mustahkam bo‘lishida hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Ammo har qanday bilim emas, balki inson ongida qayta ishlab chiqilgan, ya’ni tajriba chig‘irig‘idan o‘tgan, ikkinchi marta qayta hosil bo‘lgan bilimlargina e’tiqodning mustahkam bo‘lishini ta’minlaydi.

Shu o‘rinda ma’naviy va axloqiy tarbiya tushunchalarining mohiyati haqida to‘xtalib o‘tishni joiz deb bilamiz.

Ma’naviy tarbiya – yuksak ma’naviyatni tarbiyalash vositasi, muayyan shaxs, jamoa, guruh, jamiyat, millatda jismoniy barkamollik, ruhiy, axloqiy, ma’naviy yetuklik kabi sifatlarni shakllantirishga qaratilgan amaliy ta’lim-tarbiya jarayonini ifodalovchi tushuncha. Insonning jamiyatda yashashi uchun zarur bo‘lgan ma’naviy xususiyatlarni tarbiyalash uning eng asosiy qadriyat sifatidagi mohiyatini ta’minlaydigan qadimiy va abadiy qadriyatdir.

Axloqiy tarbiya esa jamiyat ma’naviy hayotidagi muhim ijtimoiy hodisa bo‘lib, odob-axloq tizimini, axloqiy fazilatlarni zamon talablari asosida har qaysi avlod ongiga singdirish shaklidir. Axloqiy tarbiya insoniyat tarixi mobaynida ikkita muhim masalaga javob izlaydi: biri – qanday yashamoq kerak, ikkinchisi – nima qilish keragu nima qilmaslik lozim.

Bugungi kunning dolzarb masalalaridan yana biri – soha xodimlarining yot g‘oyalarga qarshi tura olishidir. Bunda xodimlarning ma’naviy yetuklik, e’tiqodi

https://wordlyknowledge.uz

darajasini bilish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu munosabat bilan, ma'naviy-mafkuraviy yetuklik ko'rsatkichlarini belgilash va ularning rivojlanganlik darajasini aniqlash zarurati tug'iladi. Maxsus o'rganishlar asosida professional ta'lim tizimi xodimlarining ma'naviy bilimlarining quyidagi jihatlari ma'naviy-mafkuraviy yetuklik ko'rsatkichlari sifatida taklif etiladi:

– soha xodimlari bilimlarining to'laligi – o'z yoshi, mavqei va bugungi kun talabi doirasida ma'naviy va axloqiy tushunchalarga ega bo'lish, ularning mazmun-mohiyatini tushunish va mustaqil tarzda talqin eta olish;

– ma'naviy bilim va qarashlarning mantiqiy asoslangani – kundalik hayotdagi xulq shakllari turli muammoli vasiyatlarda to'g'ri xulosa chiqara olish va muammoni to'g'ri tahlil qila olish;

– ulardagi ma'naviy bilim va qarashlarning mustahkamligi. Bu jihatning namunadagi ko'rsatkichi bo'lib, ularda mavjud ma'naviy xislatlarini e'tiqod darajasiga yuksalganligi;

– PTT rahbar va pedagog xodimlarning ma'naviy bilimlarni amaliyligi, o'z axloqiy va ma'naviy jihatlarini nafaqat og'zaki ravishda, balki xulqida ham namoyon etishi.

Xullas, professional ta'lim tizimi xodimlaridagi mavjud yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlar, mustahkam iroda, Vatan taqdiri uchun mas'uliyat hissini kamol toptirish, jamoada sog'lom axloqiy-ruhiy muhitni shakllantirishga qaratilgan ishlar tizimini tubdan yaxshilash va takomillashtirish professional ta'lim tizimida faoliyat olib borayotgan har bir rahbar va xodimlarning muhim vazifasidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoev Sh.M. Niyati ulug' xalqining ishi ham ulug', hayoti yorug' va kelajagi farovon bo'ladi. 3 tom.. Toshkent, O'zbekiston, NMIU, 2019 yil
2. I.Karimov "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" T. Ma'naviyat 2008 y
3. Milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari. Toshkent 2019 yil

WORDLY KNOWLEDGE

https://wordlyknowledge.uz